O‘QITUVCHILARDA KOMPETENSIYA VA KASBIY KOMPETENTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI

Qaxxarova N.N.
Qarshi Xalqaro Innovatsion Universiteti
“Pedagogika va jismoniy madaniyat” kafedrasi o‘qituvchisi

Tayanch so‘zlar: kompetentlik, kompetensiya, informatsion, kreativ fikrlash, kasbiy, shaxsiy kompetentlik, kreativ kompetentlik, innovatsion, kommunikativ, bilim, ko‘nikma, malaka, motivatsiya.

Ключевые слова: компетенция, компетентность, информативность, творческое мышление, профессиональная, личностная компетентность, творческая компетентность, инновационная, коммуникативная, знания, умения, компетентность, мотивация.

Key words: competence, competence, informative, creative thinking, professional, personal competence, creative competence, innovative, communicative, knowledge, skills, competence, motivation.

Hozirgi jadal rivojlanayotgan jamiyatda faoliyat yuritayotgan har bir pedagogdan kasbiy kompetentlikning shakllanganligi talab etilmoqda. Kasbiy kompetentlikning rivojlantirish yo‘llari pedagog olimlar tomonidan ishlab chiqilmoqda. Dastavval kompetentlik va kompetensiya tushunchalarini yoritib olishimiz maqsadga muofiq bo‘ladi. Kompetensiya so‘zining lug’aviy ma’nosi lotinchadan olingan bo‘lib erishyapman, munosibman, loyiqman degan ma’noni anglatadi. Kompetensiya bu - egallangan bilim, ko‘nikma va malakalarni kundalik va kasbiy faoliyatda qo‘llay olish qobiliyati bo‘lsa, kompetentlik esa ma’lum bir jarayon haqida to‘g’ri mulohaza yuritishga imkon bo‘ladigan bilim, ko‘nikma va malakaga ega bo‘lish, dalil isbotli fikr, hamda kishining ma’lum bir sohadagi saviyasini ifoda etadigan tushuncha.

Kompetensiyalar ta’rifiga turlicha qarashlar mavjud:

-Amerikancha qarashga ko’ra kompetensiyalar pedagoglarning xulq – atvor ko’rinishi sifatida ko‘rib chiqiladi va tegishli bilim,ko‘nikma va malakalar egallansagina yaxshi natijalarni qayd etadi, - deb ta’kidlanadi.



1-rasm Kasbiy kompetenrlikning o‘ziga xos xususiyatlari

- Yevropacha qarash asosida qabul qilgan standartlar harakat qilish qobilyati sifatida qaraladi.

Shuni ta’kidlash joizki, har doim ham belgilangan talablar va standartlarga to‘liq javob beradigan mutaxassislar birdan shakllanib qolmaydi. Ba’zilari bilimlarni amalda qanday qo‘llashni bilishmaydi, ba’zilariga esa tajriba yetishmaydi.Natijada esa, pedagogik faoliyat samarasiz bo‘ladi. Kasbiy kompetentlikni pedagoglarda shakllantirish uchun pedagogik kompetensiyalarni alohida turlarga ajratish maqsadga muvoqdir: Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo‘llay olishi demakdir. Shuningdek, kompetentsiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o‘rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma’lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o‘z faoliyatida qo‘llay bilishni taqozo etadi. Barcha soha mutaxassislari o‘z kasbining ustasi bo‘lib yetishishi kerak.

Bugungi kunning zamonaviy pedagogigi imidjini o‘zida yaratish uchun o‘qituvchilar pedagogik kompetentlik va kompetensiya tushunchasini bilishi hamda o‘zida tarkib toptirishi darkor.

1. Ijtimoiy kompetentlik – ijtimoiy faoliyat jarayonida samarali ish olib borishning ko‘nikma hamda malakalariga egalik qilish, kasbiy faoliyatda sub’ektlar bilan muloqotga kirisha olish demakdir.

2. Maxsus kompetentlik – kasbiy faoliyatni tashkil etishga tayyorlanish, kasbiy-pedagogik vazifalarni oqilona hal qilish, faoliyati natijalarini real baholash, bilim ko’nikma malakalarni izchil rivojlantirib borish bo‘lib, ushbu kompetentlik psixologik, metodik, informatsion, kreativ, innovatsion va kommunikativ kompetensiyalarni o’zida qamrab oladi. Ular o‘zida quyidagi mazmunni ifodalaydi:

psixologik kompetentlik – ta’lim jarayonida sog‘lom psixologik muhitni yarata olish, talabalar va ta’lim jarayonining boshqa ishtirokchilari bilan ijobiy muloqotni tashkil etish, turli ziddiyatli vaziyyatlarni oz’ vaqtida oqilona bartaraf eta olish. metodik kompetentlik – ta’lim jarayonini metodik jihatdan oqilona tashkil etish, ta’lim yoki tarbiyaviy faoliyat shakllarini to‘g‘ri belgilash, metod va vositalarni maqsadga muvofiq tanlay olish hamda amaliyotda qo’llash.

informatsion kompetentlik – axborot texnologiyalari muhitida zarur, muhim, kerakli, foydali ma’lumotlarni izlash, yig‘ish, saralash, qayta ishlash va ulardan maqsadli, o‘rinli, samarali foydalanish;

kreativ kompetentlik – ta’limiy faoliyatda tanqidiy, ijodiy yondashish, o‘zining ijodkorlik malakalariga egaligini ko’rsatish;

innovatsion kompetentlik – ta’lim jarayonini takomillashtirish, ta’lim sifatini yaxshilash, tarbiya jarayonining samaradorligini oshirishga oid yangi g‘oyalarni ilgari surish, ularni amaliyotga samarali tatbiq etish;

kommunikativ kompetentlik – pedagogik faoliyatda ta’lim jarayoni ishtirokchilari bilan birgalikda samimiy muloqotda bo’lish va ularga ta’sir ko’rsata olish.

3. Shaxsiy kompetentlik – o’z ustida ishlash kasbiy malakalarini shakllantirish va kasbiy faoliyatda o‘z ichki imkoniyatlarini namoyon etish.

4. Texnologik kompetentlik – ta’lim samarasini ta’minlaydigan ilg’or texnologiyalarni o’zlashtirish, va ta;lim jarayonida qo’llay olish.

5. Ekstremal kompetentlik – turli favqulotda vaziyatlar (tabiiy ofatlar, texnologik jarayon ishdan chiqqan)da, pedagogik nizolar yuzaga kelganda oqilona qaror qabul qilish, to‘g‘ri harakatlanish malakasiga egalik. Yuqoridagi kasbiy kompetentlik sifatlarini shakllantirish uchun pedagoglar o‘z ustida quyidagi bosqichda faoliyat olib borishlari kerak. aniq maqsad, intilish asosida pedagogik jarayonni shakllantirish; pedagogik jarayon samaradorligini, o‘zining ishchanlik faolligini takomillashtirish; izchil ravishda yangilanib borayotgan pedagogik bilimlarni egallash; ilg’or texnologiya, metod hamda vositalardan

xabardor bo‘lish; faoliyatiga fan-texnikaning so‘nggi yangiliklarini samarali tadbiq etish; kasbiy ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish;

Zero bugungi kun pedagoglardan mukammal bilim, tinimsiz fan texnika yangiliklardan xabardor bo‘lish va yangi bilimlarni o‘quvchi yoshlarga qisqa, lo‘nda, tushunarli tarzda yetkazib berishni talab etmoqda. Alisher Navoiy hazratlarining «Farhod va Shirin» dostonida Farhod tomonidan shunaqa satrlar keltiriladi «Hunarni asrabon netgumdir oxir, olib tuproqqamu ketgumdir oxir».

Xulosa o‘rnida shuni aytishimiz joizki kasbiy kompetentlik noananaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mautaxassisning o‘zini qanday tutishi, o‘quvchilar bilan muoqotga kirishishi, raqiblar bilan o‘zaro munosabatlarda yangi taktik yo‘llar tutishi, ziddiyatlarga to‘la keyslardan foydalanishi, izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga ega bo‘lishi asosida o‘zida professional pedagog qiyofasini yaratishi lozim.

Adabiyotlar:

1. B.Xodjayev, Z.Raximov, A.Xo’jayev «Kasbiy pedagogika» Toshkent. «Voris nashriyoti» 2019 y.

2. N.Muslimov, M.Usmonboyeva, D.Sayfurov, A.To‘rayev - Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent. “Sano-standart” 2015-y 82-b

3. Muslimov N.A., va boshqalar. Kasb ta’limi o‘qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi/ Monografiya. - T.: “Fan va texnologiya” nashriyoti, 2013-y. 65-b

4. Барышева Т.А., Жигалов Ю.А. Психолого-педагогические основы развития креативности – СПб.: СПГУТД, 2006 107-б

5. Berdiyev B. R.Methods of Teaching Mathematics Based on the Conventional Approach to Elementary School Mathematics // Chexiya Middle European Scientific Bulletin, Volume 31 | Dec -2022 ISSN 2694-9970 145-152 b

РЕЗЮМЕ

Mazkur maqolada kompetentlik va kompetensiya tushunchalarining mazmun mohiyati, kasbiy kompetenlikning o‘ziga xos sifatlari hamda ularni namoyon qiluvchi jarayonlar, har bir pedagogning kasbiy kompetentligini shakllantirish omillari, ta’lim jarayonida pedagogning innovatsion faoliyatiga oid fikr-mulohazalar mufassal yoritilgan.

РЕЗЮМЕ

В статье подробно раскрыта сущность понятий компетентность и компетентность, конкретные качества профессиональной компетентности и процессы, которые их проявляют, факторы формирования профессиональной компетентности каждого педагога, мнения об инновационной деятельности педагога. педагог в образовательном процессе.

SUMMARY

This article describes in detail the essence of the concepts of competence and competence, the specific qualities of professional competence and the processes that manifest them, the factors of the formation of the professional competence of each pedagogue, opinions on the innovative activities of the pedagogue in the educational process.